



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ



ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ИҚТИСОДИЁТ
УНИВЕРСИТЕТИ



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
БОШ ПРОКУРАТУРАСИ
АКАДЕМИЯСИ

САНОАТ ИҚТИСОДИЁТИ КАФЕДРАСИ


**МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ
ТАЪМИНЛАШНИНГ АСОСИЙ
ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ**

**ИЛМИЙ МАҶОЛА ВА
ТЕЗИСЛАР ТҮПЛАМИ**

**II ҚИСМ
IV, V - ШУЪБАЛАР**

8 ноябрь 2019 йил



Тошкент давлат
иқтисодиёт университети



Ўзбекистон Республикаси
Бош прокуратура Академияси

**ИҚТИСОДИЁТ ФАКУЛЬТЕТИ
САНОАТ ИҚТИСОДИЁТИ КАФЕДРАСИ**

**МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЙ
ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ
АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ**

**ИЛМИЙ МАҶОЛА ВА
ТЕЗИСЛАР ТЎПЛАМИ**

II ҚИСМ

IV, V ШЎҶБАЛАР

2019 йил 8 ноябрь

“Мамлакат иқтисодий хавфсизлиги... таъминлашнинг асосий йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани илмий мақола ва тезислар тўплами. II қисм, IV, V шўйбалар. 2019 йил 8 ноябрь. - 324 б. Конференция илмий мақола ва тезислар тўплами ТДИУ расмий сайтида (www.tsue.uz) Google Scholar тизимида боғланган ҳолда эълон қилинади.

Тўпламга Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 февралдаги 133-ф сонли фармойиши ҳамда Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирининг 2019 йил 28 февралдаги 205-сонли буйруғига мувофиқ Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Саноат иқтисодиёти” кафедраси томонидан ташкил этилган **“Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари”** мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани иштирокчиларининг илмий мақола ва маъруза тезислари киритилган. Улар анжуман иштирокчиларининг мавзуга оид устувор вазифаларни ҳал этишга қаратилган илмий-услубий ва амалий тавсияларини ўз ичига олади.

Ушбу тўпламга киритилган илмий мақола ва тезислардан иқтисодий хавфсизликни таъминлаш борасида чора-тадбирлар ишлаб чиқиши, магистратура ва бакалавриат таълим босқичида ўқитилиладиган фанлар бўйича ўқув-услубий мажмуалар, маъруза матнлари ва амалий машғулотлар учун қўлланмалар тайёрлашда, шунингдек илмий ва амалий тадқиқотлар олиб бориш, магистрлик диссертациялари тайёрлашда фойдаланиш мумкин.

Тўплам таҳrir ҳайъати қарори билан чоп этишга тавсия этилган.

Масъул муҳаррир: Салимов Бахтиёр Таджиевич, иқтисод фанлари доктори, профессор.

Таҳrir ҳайъати:

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Қосимова М.С.

иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент Хотамов И.С.

иқтисодиёт фанлари доктори, доцент Мустафақулов Ш.И.

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Назарова Р.Р.

иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Юсупов М.С.

иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Файзуллаев Ж.С.

кафедра асистенти Исмоилов А.Ж.

Тақризчилар:

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Махмудов Н.М.

иқтисодиёт фанлари доктори, профессор в.б. Алиев Я.Э.

Мазкур тўпламга киритилган мақола ва маъруза тезисларида келтирилган маълумотлар ҳамда статистик маълумотларнинг ҳаққонийлиги учун муалифлар масъулдирлар.

© Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2019

миллий валютанинг номинал алмашув курсини талаб ва таклиф асосида белгилаш тартиби жорий қилинди [6]. Бунинг натижасида 2017 йил 5 сентябрь куни сўмнинг 1 АҚШ долларига нисбатан номинал алмашув курси 8100,00 сўмни ташкил қилди. Яъни, сўмнинг АҚШ доларига нисбатан қадрсизланиш суръати қарийб икки барбарни ташкил этди.

Давлат қарзи саноат корхоналарининг молиявий хавфсизлигига таъсир кўрсатувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида давлатнинг ички қарзи билан боғлиқ бўлган муаммолар йўқ. Шунингдек, давлат ташки қарзининг даражаси ҳам юқори эмас. 2017 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, давлат ташки қарзининг ЯИМга нисбатан даражаси 9 фоизни ташкил этди. Бунда, жами ташки қарз ЯИМга нисбатан 17 фоизни ташкил этди. Қолган 8 фоиз миқдорида ташки қарз – бу корпоратив ташки қарздир [7].

Фикримизча, Корхоналарнинг молиявий хавфсизлигини таъминлаш мақсадида қўйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

- корхоналарнинг ликвидлилик коэффициентлари бўйича молиявий хавфсизлигини таъминлаш мақсадида,

биринчидан, дебитор қарздорлик ва товар захираларининг айланишини тезлаштириш йўли билан пул маблағларининг жорий активлар ҳажмидаги салмоғини ошириш лозим;

иккинчидан, корхоналар томонидан юқори ликвидли қимматли қоғозларга қилинадиган қисқа муддатли молиявий инвестициялар ҳажмини ошириш зарур;

учинчидан, жорий активлар ва жорий пассивлар ўртасидаги нисбат мутаносиблигини жорий ликвидлилик коэффициентининг энг паст меъёрий даражасидан келиб чиқсан ҳолда таъминлаш лозим.

туртингчидан, молиявий левераж коэффициентининг амалдаги даражасининг юқори эканлигини ҳисобга олган ҳолда, корхоналарнинг тижорат банклари кредитларидан фойдаланиш даражасини оширишга қаратилган тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш лозим.

*Maxmudov Nosir Maxmudovich i.f.d., prof.
TDIU “Makroiqtisodiyot” kafedrasi professori
Avazov Nuriddin Rustam o‘g‘li
TDIU Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINING INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash usullari va iqtisodiy xavfsizlikning investitsion muhitni shakllantirishga ta’siri tahlil qilingan. Bundan tashqari bu maqolada iqtisodiy xavfsizlik obyektlari, iqtisodiy xavfsizlik subyektlari va iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая безопасность страны и влияние экономической безопасности на инвестиционный климат. Эта статья также предоставляет информацию об элементах экономической безопасности, субъектах экономической безопасности и показателях экономической безопасности.

Abstract: This article analyzes the economic security of the country and the impact of economic security on the investment climate. This article also provides information on economic security features, economic security entities, and economic security indicators.

Tayanch iboralar: iqtisodiy xavfsizlik, investitsion muhit, investitsiya, iqtisodiy o’sish, milliy xavfsizlik, iqtisodiy xavsizlik obyektlari, iqtisodiy xavfsizlik subyektlari, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari.


Hozirgi kunda tez sur’atlarda o‘zgarayotgan dunyo iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlik tobora muhim tushuncha bo‘lib bormoqda hamda bunga real amaliy ehtiyojlar vujudga kelmoqda.

Mamlakatni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun eng avvalo mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash talab etiladi. Bunda milliy xavfsizlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki iqtisodiy xavsizlik ham milliy xavfsizlikning muhim bir qismi hisoblanadi. Milliy xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikka qaraganda kengroq tushuncha hisoblanadi. Milliy xavfsizlik tarkibi butun mamlakatning barcha yo'naliшlarda xavfsizlik darajasi kiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o'z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo'la boshlagan.

Milliy xavfsizlikning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi: siyosiy xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, g'oyaviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik hamda iqtisodiy xavfsizlik. Yuqorida sanab o'tilganlar asosida milliy xavfsizlik vujudga keladi va bu jamiyat uchun juda muhim birlik hisoblanadi. Shuni takidlab o'tish lozimki, milliy xavfsizlikning tarkibiy qismlaridan eng muhimi bu iqtisodiy xavfsizlik hisoblanadi va boshqa barcha xavfsizlik turlari shu asosida mavjud bo'ladi va vujudga keladi. Quyida iqtisodiy xavfsizlik tarkibiy qismlari aks ettirilgan(1-rasm).



1.rasm. Milliy xavfsizlik turlari.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat xavfsizligi tizimidagi muhim yo'naliш bo'lib, mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ekologik halokatlardan himoya qilish kabi yo'naliшlar bilan bir qatorda turadi. Mana shu yo'naliшlar bir – birini to'ldirib turadi va bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyoti baquvvat bo'lmasa, u barqaror rivojlanmasa, ushbu mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash mushkul bo'lib qoladi. Ayni paytda, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanmas ekan, uning mudofa qobiliyatni ham mustahkam bo'lmaydi va iqtisodiyoti samarali rivojlanmaydi.

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri va tahdidlardan himoya

qilishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlik o‘zining obyektlari ega bo‘lib, uning obyekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga quyidagi larni o‘z ichiga oladi:

- tabiiy boyliklar;
- inson resurslari, mehnatga layoqatli aholi;
- ishlab chiqarish fondlari;
- ko‘chmas mulk;
- moliyaviy resurslar;
- xo‘jalik tizimlari;
- mintaqalar;
- oila;
- inson.

Iqtisodiy xavfsizlik yuqoridagi obyektlarni o‘z ichiga oladi va iqtisodiy xavfsizlik shu obyektlar asosida yuzaga keladi.

Iqtisodiy xavfsizlik quyidagi subyektlarni o‘z ichiga oladi:

- funksional va tarmoq vazirliklari hamda idoralari;
- soliq xizmatlari;
- bojxona xizmatlari;
- banklar;
- birjalar;
- sug‘urta kompaniyalari;
- qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo‘mita va komissiyalari;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, ish va xizmatlar ko‘rsatuvchilar;
- iste’molchilar jamiyatlari.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash yuqoridagi tashkilot va muassasalar asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotning asosi yuqoridagi tashkilot va muassasalar tashkil qiladi.

Bundan tashqari iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi turlari mavjud:

- ishlab chiqarish texnologik sohalardagi xavfsizlik;
- sanoat sohasidagi xavfsizlik;
- oziq-ovqat xavfsizligi;
- demografik xavfsizlik;
- moliyaviy xavfsizlik;
- axborot xavfsizligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik vah.k.

Yuqorida sanab o‘tilgan iqtisodiy xavfsizlik turlari ya’ni ishlab chiqarish texnologik sohalardagi xavfsizlik, sanoat sohasidagi xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, demografik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik kabi xavfsizlik turlari birikib mamlakat iqtisodiy xavfsizligini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish texnologik sohasidagi xavfsizlik bevosita iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu bevosita mamlakat investitsion muhitiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni asosan investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinadi. Ishlab chiqarishni kengaytirish orqali mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda ishlab chiqarish sohasida xavfsizlikni ta’minalash eng muhim omili bu yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llab borishdir. Chunki, agarda bu sohaga innovatsion texnologiyalar qo‘llanmasa va uzlucksiz yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga kiritib turilmasa, ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketishi hamda iqtisodiy xavfsizlikka putur yetishi mumkin. Bunday holatda mamlakatga investitsiya kirib kelishi hajmi ham keskin tushib ketishi

mumkin. Chunki hech qaysi investor iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanmagan mamlakatga investitsiya kiritishni xohlamaydi.

Sanoat sohasida ham xavfsizlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Chunki har qanday mamlakatning iqtisodiyotidagi eng asosiy sohalardan biri bu sanoat hisoblanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini tushib ketishi mamlakatda bu soha iqtisodiy xavfsizlikka putur yetkazishini anglatadi. Yuqorida aytib o'tganimizday malakatda agarda iqtisodiy xavfsizlikka ta'minlanmagan bo'lsa, bu mamlakatga investorlarning investitsiya kiritishiga qiziqishi tushib ketishi mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda balki butun jahon iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oziq – ovqat xavfsizligi bevosita inson salomatligi bilan bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun ham oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi eng muhim qism bo'lib hisoblanadi.

Demografik xavfsizlik bu aholi soniga qarab iqtisodiyotni oldidan tayyorlab borish hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmi bilan bozorda yuzaga kelayotgan talabni qodira olish muammosi iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Aholi sonini oldidan prognoz qilish hamda unga ko'ra iqtisodiyot holati tayyorlab borish orqali iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Bunda ham shu aytib o'tish kerakki, makroiqtisodiy barqarorlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiya kirib kelishi hajmi oshib boradi va natijada malakat iqtisodiyoti jadal rivojlanishda bo'ladi.

Moliyaviy xavfsizlik bevosita pul bilan bog'liq bo'lib, mamlakatda to'g'ri moliyaviy siyosat olib borilaotganligi darajasini ko'rsatib beruvchi faktorlardan biri hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash investitsion muhit shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborot xavfsizligi bugungi kunda har qanday sohada muhim bir bo'lagi hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda axborotga ega bo'lganlar o'zi xohlagan narsasiga egalik qilishi mumkin. Shuning uchun bitta iqtisodiyot sohasida emas, balki mamlakatimizni barcha sohalari axborot xavfsizligini saqlash mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik ham iqtisodiy xavfsizlikning muhim birliklaridan bo'lib hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni to'g'ri tashkil qilish va uni to'g'ri yuritish muhim hisoblanadi va bu to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy xavfsizlikka kelib qo'shiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha iqtisodiy xavfsizlik turlari bevosita mamlakat investitsion muhitiga ta'sir ko'rsatadi. Sanab o'tilgan iqtisodiy xavfsizlik turlarining barchasida xavfsizlikni saqlash asosida mamlakat investitsion muhitini shakllantirish mumkin.

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ko'rsatib turuvchi bir qancha ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik darajasini ko'rsatib turadi. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari quydagilar hisoblanadi:

- yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi;
- aholining turmush darjasasi va sifati;
- inflyatsiya darjasasi;
- ishsizlik darjasasi;
- iqtisodiyot tarkibi;
- davlat qarzi;
- jamiyatning mulkiy tabaqlanishi;
- iqtisodiyot va jamiyatning kriminallashuvi;
- ishlab chiqarishning texnik va texnologik holati;
- raqobatbardoshlik;
- importga bog'langanlik;
- xufiyona iqtisodiy faoliyat miqyosi;
- oltin valyuta zahiralari.

Yuqorida sanab o'tilganlar iqtisodiy xavfsizlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ular asosida mamlakat iqtisodiy xavfsizligi kelib chiqadi hamda uning investitsion muhitga ta'siri aks ettiriladi. Yalpi ichki mahsulot hajmining o'sib borishi asosida makroiqtisodiy

barqarorlik ta'minlanilandi va bu o'z-o'zidan ko'rini turibdiki, mamlakatda investitsion muhit shakllantirishga katta hissa qo'shadi.

Aholi turmush darajasi va sifati iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim indekatorlaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga harkat qiladi. Lekin nima uchun iqtisodiyotini rivojlantiradi? degan savol tug'ilishi mumkin. Albatta ushbu jarayon ya'ni iqtisodiyotning rivojlanish jarayoni barchasi aholi turmush darajasini yaxshilash hamda turmush sifatini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Iqtisodiyot qanchalik rivojlansa hamda iqtisodiy xavfsizlik ta'minlansa, bu mamlakatda aholi turmush darajasi yuqori bo'ladi.

Inflyatsiya darajasi ham albatta mamlakat iqtisodiyotining holatini ko'rsatib turuvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Qanchalik inlyatsiya darajasi past bo'lsa, iqtisodiyot rivojlanishi shunchalik jadal sur'atda boradi. Inflyatsiya darajasi shuningdek, investitsion muhitga ta'sir qiladigan eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Investitsion muhitni shakllantirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni saqlash uchun eng avvalo mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish talab etiladi.

Ihsizlik darajasi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun eng avvalo ishsizlik darajasini pasaytirish talab etiladi. Bunda malakatga ko'proq investitsiya jalb qilish asosida ham bu ko'rsatkichni pasaytirish mumkin. Ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish orqali yangi sanoat korxonalarini barpo etish hamda bu asosida yangi ish o'rinalarini yaratish iqtisodiyotda ishsizlik darajasini pasaytirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarkibini kengaytirish ham iqtisodiy xavfsizlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda hududlarga investitsiyalarni keng joriy qilish orqali iqtisodiyot tarkibini kengaytirish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Davlat qarzlari ham iqtisodiy xavfsizlikning muhim bo'laklaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda investitsion muhitni shakllantirishda ham bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar bunday mamlakatga investitsiya kiritishga qo'rjadi. Chunki davlat qarzlari ko'p bo'lganligi sabab bu davlat iqtisodiyotida har qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlikning investitsion muhitga ta'siri vositalarini yuqorida ko'rib chiqdik hamda iqtisodiy xavfsizlik ta'minlash hamda investitsion muhitni shakllantirish ishlarini yaxshilashga oid amaliy chora -tadbirlar tizimini takomillashtirishga doir quyidagi takliflarni berib qolamiz:

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ishlarini jadal davom ettirish;
- ishlab chiqarish texnologik sohalardagi xavfsizlikni ta'minlash;
- sanoat sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash;
- oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash;
- demografik xavfsizlik ta'minlash;
- moliyaviy xavfsizlik ta'minlash;
- axborot xavfsizligi ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xavfsizlik ta'minlash;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash asosida qulay investitsion muhitni shakllantish asoslarini ishlab chiqish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda qulay investitsion muhitni yaratishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini ko'paytirish va ularni amaliyotda qo'llashni tashkil etish;
- mamlakatda inflyatsiya darajasini jilovlash hamda uning investitsion loyihalarga ta'sirini kamaytirish.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkin-ki, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng samarali vositasi bu investitsiyalar hisoblanadi. Investitsiyalar kirib kelishiga esa mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanganlik darajasi muhim hisoblanadi va u investitsion muhit shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

27.	Хўжаев Ф.Э.	Қишлоқ хўжалиги махсулотларини етишириш, сақлаш, қайта ишлаш ва экспортини ҳозирги ҳолати ва уни янада такомиллаштириш	194
28.	Ҳусанова Г.С.	Минтақаларни комплек ривож-лантиришда хорижий мамлакатлар тажрибаси	199
29.	Рахматуллаева Ш., К.Имомова	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодиётдаги аҳамияти	200
30.	Рахматуллаева Ш., М.Камолиддинова	Аҳоли бандлигини таъминлаш – иқтисодий муносабатларнинг мухим омили	202
31.	Эргашев О.Т.	Иқтисодий фаолликни таъминлашда молия-кредит механизмининг ўрни	205
32.	Эрматов Н.Т.	Худуд инвестицион салоҳиятини бошқариш масалалари	207
33.	To'raqulov Z. F.	Mamlakat Iqtisodiy xavfsizligini taminlashda xorij tajribasi	208
34.	Усмонова Д.М.	Тадбиркорлик фаолиятида экспорт стратегиясини амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари	210
35.	Беркинов Б.Б. Жеткербаева А.Г.	Особенности обеспечения экономической безопасности страны	213
36.	Исаков Ж.Я. Исаков И.Ж.	Саноат корхоналарининг молиявий хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари	215
37.	Maxmudov N. M., Avazov N. R.	Mamlakat iqtisodiy xavfsizligining investitsion muhitni shakllantirishga ta'siri	217
38.	Салимов Б. Т., Турсунходжаев М.Л., Салимов Ш.Б.	Саноат ялпи ички маҳулот таркибини узгартериш омили	222
39.	Kasymov S.S.	Main directions in ensuring the economic security of the organization	225
40.	Тухлиев Н.	К вопросу о сущности и организации безопасности в туризме	227
41.	Назарова Р. Р. Карабаева Г. Ш.	Роль и значение экономической безопасности на промышленных предприятиях	232
42.	Гуломов С.С., Ражамуродов Ҳ.З., Расулова М.Т.	Агросаноат мажмуасини ахборотлаштиришда инновацион ёндашув	236
43.	Салихов С.А. Шарипов С.Я.	Товар ва хизматлар сифати ва хавфсизлигини таъминлаш иқтисодий ўсишнинг асосий омили	239
44.	Камбаров Ж. Х., Комилжанов Ш. И.	Экономические проблемы в туризм	241
45.	Жумаев Қ.Х.	Чорвачилик статистикаси кўрсаткичлар тизими	244
46.	Алиев Я. Э.	Инновацион жараёнларни самарали бошқариш ва молиялаштириш	248
47.	Юлдашева Д.К.	Мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини самарали ва ишончли таъминлаш тизимини такомиллаштириш йўналишлари	252
48.	Мустафакулов Ш. И., Хайдарова М. И.	Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда муқобил энергетикани ривожлантириш зарурлиги	255
49.	Маҳкамбоев А.Т. Шодиев Э.Т.	Ўзбекистонда молиявий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб масалалари	257
50.	Низамов Н.А. Рахимова А.Ю.	Озиқ-овқат хавфсизлиги масалалари	260